

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhhammadov, B.S.Sharipova</b>	
Bioetik bilim tushunchasining mazmun-mohiyati, uni shakllantirishning pedagogik zarurati.....	6
<b>Sh.K.Xujamberdiyeva</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni insoniy fazilatlarini shakllantirishda badiiy asarlarning o'рни.....	11
<b>M.B.Artikova, M.M.Mutallibjonov</b>	
Talabalar kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalar tadqiqi .....	16
<b>M.M.Kaxarova, N.E.Yusupova</b>	
Ingliz tili darslarida matn bilan ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi ...	23
<b>M.M.Yakubbayev</b>	
Development of lingvocultural competence of students in the process of teaching german language.....	29
<b>J.A.Yuldashev</b>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga aksiologik yondashuvni joriy etishning metodik xususiyatlari.....	34
<b>X.T.Nishonova</b>	
Methods of developing students' lexical competence through comics in English lessons in elementary grades .....	38
<b>Sh.M.Robilova</b>	
O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik modeli.....	43
<b>U.S.Do'sanov</b>	
Oliy o'quv yurti talabalariga jismoniy tarbiya tizimida sport-sog'lomlashtirish turizmi vositalarini qo'llash metodikasi.....	47
<b>X.X.Umarov</b>	
Влияние высокоинтенсивной тренировочной нагрузки на организм юных гимнастов .....	51
<b>Д.К.Каримов</b>	
Мониторинг эффективности корреляционной связи спортивной специализации от типов телосложения у юных акробатов .....	55
<b>З.Г.Гаппаров</b>	
Исследование новых технологий синхронизации движения в синхронном плавании .....	61
<b>M.N.Nasritdinova</b>	
Artpedagogika fanini o'qitish jarayonida bo'lajak pedagoglar badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish.....	67
<b>M.G'Zaylobidinova</b>	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik omillari, Xitoy tajribasi .....	72
<b>D.K.Baydjanova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish mazmuni .....	78
<b>I.A.Raxmonov</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida hayot faoliyati xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishni pedagogik muammosi.....	82

## IQTISODIYOT

<b>M.K.Abadov</b>	
Possible consequences of the refusal to switch to a digital currency in Azerbaijan .....	85

## FALSAFA

<b>M.A.Mamatov</b>	
So'fiylik – gumanistik ta'limot .....	90
<b>Sh.O'.Ahrorova</b>	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'рни .....	98
<b>D.Y.Qambarova</b>	
O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy munosabat mezonlari.....	102



UO'K: 37.1174.374.3

**NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM OLUVCHILARNING HAYOTIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI, XITOU TAJRIBASI****ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЖИЗНЕННЫХ НАВЫКОВ ОБУЧАЮЩИХСЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ, НА ПРИМЕРЕ КИТАЯ****PEDAGOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF LIFE SKILLS OF STUDENTS IN NON-GOVERNMENTAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS, USING THE EXAMPLE OF CHINA****Zaylobidinova Munira G'ulomovna**

Farg'ona davlat universiteti ikkinchi bosqich doktoranti

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada nodavlat ta'lim muassasalarida o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik omillari haqida so'z yuritilgan. Shu bilan birga, hayotiy ko'nikmalar nima va uning pedagogik ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan va hozirgi kunda yoshlarni ishga joylatish uchun ularga kerakli ko'nikmalarni o'rgatish zarurligi haqida yoritilgan. O'zbekiston ta'lim tizimida hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish endilikda aks etayotgan jarayon bo'lsa, G'arb va Sharq mamlakatlarida bu kabi ko'nikmalarni shakllantirish allaqachon davlat ta'lim dasturiga kiritilgan. Misol tariqasida Xitoy ta'lim tizimining yutuqlari haqida atroflicha dalillar va tasniflar keltirilgan. PISA 15 yoshli o'quvchilarning matematika, o'qish va tabiiy fanlar savodxonligini baholovchi xalqaro imtihon bo'lib, unda Xitoy doimo yuqori o'rinni egallab keladi. Shuning uchun Xitoyning samarali o'qitish metodologiyasini o'rganish va O'zbekiston ta'lim tizimi doirasida qo'llash bir qator muvaffaqiyatlarni olib kelishi mumkin. Shu bilan birgalikda O'zbekistonning ta'limini va iqtisodiyotini rivojlantiruvchi omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, Xitoyning ta'lim tizimini rivojlanish strategiyasi haqida ham ushbu maqolada qisqacha ma'lumot berilgan.

**Аннотация**

В данной статье говорится о педагогических факторах формирования жизненных навыков у студентов в негосударственных образовательных учреждениях. При этом подробно описана информация о жизненных навыках и о том, насколько необходимо сегодня молодым людям овладевать навыками, необходимыми для устройства на работу. В системе образования Узбекистана обучение жизненным навыкам представляет собой процесс, который находит свое начало в недавно, в то время как в странах Запада и Востока формирование таких навыков уже давно включено в государственную программу образования. В качестве примера приводятся косвенные данные и классификации достижений китайской системы образования. Мы знаем, что Китай всегда занимает высокие места в PISA — международном тесте, оценивающем грамотность по математике, чтению и естественных науках у 15-летних школьников. Поэтому изучение эффективной методики преподавания китайского языка и ее использование в системе образования Узбекистана может принести ряд успехов. В то же время это может послужить фактором развития образования и экономики в Узбекистане. Принимая во внимание вышеизложенное, в данной статье также представлена краткая информация о стратегии развития системы образования Китая.

**Abstract**

This article talks about pedagogical factors in the formation of life skills among students of non-state educational institutions. It also provides detailed information about life skills and the need for young people today to learn the skills needed to get a job. In the education system of Uzbekistan, teaching life skills is a process that is started reflecting nowadays, while in Western and Eastern countries the formation of such skills is already included in the state education program. For example, indirect data and classifications of the achievements of the Chinese education system are given. We know that China consistently ranks high in PISA, an international test that assesses the literacy of 15-year-old schoolchildren. Therefore, studying effective methods of Chinese education system of Uzbekistan might bring several successes. At the same time, this can serve as a factor in the development of education and the economy in Uzbekistan. Taking into account the above, this article also provides a summary of the development strategy of China's education system.

**Kalit so'zlar:** PISA, hayotiy ko'nikmalar, nodavlat ta'lim muassasalari, Xitoy ta'lim tizimi, samarali muloqot, yetakchilik, vaqtni to'g'ri taqsimlash, jamoada ishlash.

**Ключевые слова:** PISA, жизненные навыки, негосударственные учебные заведения, образовательная система, эффективная коммуникация, лидерство, распределение времени, работа в команде.

**Key words:** PISA, life skills, non-state educational institutions, educational system, effective communication, leadership, time-management, teamwork.

**KIRISH**

Xitoy tajribasiga asoslangan holda, nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish muammosi zamonaviy pedagogika sohasida dolzarb mavzuga aylandi. Bugungi globallashuv sharoitida o'quvchilarning muloqot qilish, mustaqil fikrlash,

## PEDAGOGIKA

muammolarni hal qilish kabi hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim vazifasiga aylangan. Xitoyning ta'lim tizimidagi ilg'or tajribasi jahon miqyosida katta e'tibor qozongan. Shuni ta'kidlash joizki, nodavlat ta'lim muassasalari o'quvchilarga ko'proq individual yondashuv va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkonini beradi. Ushbu muassasalarda ta'lim oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik omillarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish, o'qituvchilar va pedagoglar oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqot, ushbu jarayonlarni rivojlantirishda Xitoy tajribasining o'ziga xos jihatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, uni O'zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish yangi O'zbekistonning rivojlanish jarayonida ta'limning yaxlit ajralmas qismi bo'lib qolishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'lim sohasini rivojlanishiga alohida e'tibor berar ekan O'zbekiston ta'lim tizimini jahon standartlariga olib chiqish uchun bir qator qarorlar qabul qildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentyabrdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ – 3276-sonli Qaror [5;]<sup>4</sup> qarori mamlakatda nodavlat ta'lim tizimini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bo'lib, qarorda ta'lim jarayoniga innovatsion, pedagogik va texnologik yondashuvlarni jalb qilishni belgilaydi.

Hayotiy ko'nikmalar – bu boshqalar bilan samarali munosabatda bo'lishga imkon beradigan shaxsiy xususiyatlar va qobiliyatlar, odamlarning kasb va kelajak hayotlarida muvaffaqiyatli bo'lish uchun zaruriy bilimlar majmuasidir. Hayotiy ko'nikmalar insonning shaxsiy, ijtimoiy va professional hayotidagi turli vaziyatlarda samarali hatti-harakatlar qilishga undaydi. Hayotiy ko'nikmalar samarali muloqot qilish, o'z-o'zini boshqarish, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, stressni boshqarish, qaror qabul qilish kabi qobiliyatlarni o'z ichiga oladi.

Hayotiy ko'nikmalar insoning shaxsiy rivojlanishiga, o'z-o'zini anglashiga, o'ziga bo'lgan ishonchini o'shishga va o'z maqsadlariga erishishga poydevor bo'ladi. Bu kabi ko'nikmalar va qobiliyatlar esa shaxsiy rivojlanishning muhim qismidir. Bundan tashqari hayotiy ko'nikmalar ijtimoiy munosabatlarda ayniqsa empatiya va hamko'rlik qobiliyati, insonning boshqalar bilan samarali va sog'lom munosabatlar o'rnatishga yordam beradi. Bu ko'nikmalar avvalo oilada, do'stlar orasida va ish joyida muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarurdir. Jeff Tanning (2022)<sup>5</sup> ta'kidlashicha yoshlar o'qish davrida faqatgina texnik va dasturiy bilimlar bilan chegaralanib qolmasdan hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham e'tibor berishlari kerak va bu kabi ko'nikmalarni shakllantirish har bir maktab dasturiga kiritilishi kerak deb hisoblaydi. Darhaqiqat, ko'p yoshlar o'smirlikka o'tish davrida boshqalar bilan masalan, sinfdoshlar, yangi do'stlar va hamkasabalar bilan munosabatlar o'rnatishda muammoga duch kelishadi. Shunday vaziyatlarda hayotiy ko'nikmalar samarali va oqilona qarorlar qabul qilishga asosiy manba bo'lib xizmat qiladi va to'g'ri qarorlar qabul qilishga undaydi. Azaldan xalqimizda yoshi kattalardan maslahat so'rash urf-odat bo'lib kelgan, chunki ularning tajribasi beqiyosligini inkor etolmaymiz. Bunday tajriba esa otabobolarimizning umrlari davomida sayqallanib kelgan hayotiy ko'nikmalar majmuasi ekanligini e'tirof etish kerak. Ammo, shuni ta'kidlash joizki har doim ham kattalar o'rgatgan o'g'itlar to'g'ri bo'lavermaydi. Masalan, tanqidiy fikrlash xalqimiz orasida "odobsizlik, betga choparlik" deb hisoblansa hozirgi kunda bu ko'nikma shaxsiy rivojlanishning bir ko'rinishi deb qabul qilinmoqda. Vasundhara Sawhney (2020)<sup>6</sup> "Garvardning iqtisodiy rivojlanish sharhi" jurnalida yozishicha "...o'zingdan-da yoshi kattalarning fikriga qarshi chiqish-odobsizlikning ko'rinishi emas, chunki barcha adashishi mumkin. Sen esa ko'p savollar so'rab bilimlarini boyitishing va muzokaralar olib borish qobiliyatini rivojlantirishing mumkin" deydi. Ammo kattalarning fikrlariga qarshi fikr berish odob axloq doirasida bo'lishi kerakligini ham ta'kidlab o'tadi.

Hayotiy ko'nikmalar insonga kundalik hayotidagi turli vaziyatlarga moslashish va o'z maqsadlarga erishish imkoniyatini beradi. Hozirgi kunda bu kabi xususiyatlar har bir insonning

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentyabrdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ – 3276-sonli Qaror [7;]<sup>4</sup> qarori.

<sup>5</sup> Tan, J., Odamlarning faqat texnik ko'nikmalariga emas hayotiy ko'nikmalariga ham e'tibor qarating. Garvard iqtisodiy rivojlanish sharhi jurnali, 45 bet, 2022.

<sup>6</sup> Sawhney, V., Odamlarning fikriga qo'shimaslik salbiy xulqning oqibati emas. Garvard iqtisodiy rivojlanish sharhi jurnali, 173 bet, 2020.

shaxsiy, ijtimoiy va professional faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishishning zaruratiga aylanib qolgan.

Xitoyning ta'lim tizimi, dunyo miqyosidagi innavatsion va samarali tizimlardan biri sifatida tanildi. Xitoy hukumatining ta'limga bo'lgan ijobiy strategiyasi dunyoga mashhur olimlarni, allomalarni va o'z sohasini mutaxassislarini yetkazib bermoqda. Bunday natijalarga erishish uchun Xitoy hukumati 1996-yildan boshlab ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan turli ta'lim islohotlarni amalga oshirdi. Bu islohotlar o'quv dasturlarini yangilash, o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlari, ta'lim infratuzilmasi va resurslarini modernizatsiya qilish tashabbuslarini o'z ichiga oladi. Ayniqsa, yumshoq ko'nikmalarni o'qitishda sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishildi va albatta innavatsion o'qitish metodlari birinchi bo'lib nodavlat ta'lim muassasalarida namoyon bo'ldi. Sababi, Xitoyda o'quv markazlarning soni ko'pdir shuning uchun xususiy o'quv markazlar o'quvchilarni jalb qilish uchun innovatsiyani birinchilardan bo'lib qo'llashni boshlaydilar. Odatda, Xitoyning o'qitish usuli akademik mukammallikka erishish uchun yodlab olish bilan chegaralanardi. Biroq, XXI asrga kelib, Xitoy hukumati yoshlarni har tomonlama rivojlanishi muhimligini tan oldi va hayotiy ko'nikmalarni ta'limga integratsiya qilishni boshladi. Xitoy ta'lim vazirligi yanada yaxlit va innavatsion ta'limni rivojlantirishga qaratilgan yangicha islohotlarni kiritdi, va bu yangicha uslub maktab va oliy ta'lim o'quv dasturlarida o'z aksini topdi. Ya'ni, yangi o'quv yo'riqnomalar joriy etildi, an'anaviy o'quv fanlari bilan bir qatorda san'at, jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya kabi fanlar negizida hayotiy ko'nikmalarni o'rgatishga urg'u berdi. Ushbu islohotlar o'quvchilarga turli xil mashqlar orqali ijodkorlik, moslashuvchanlik, yetakchilik, vaqtni boshqarish, tanqidiy fikrlash va o'zini namoyon qilish kabi muhim hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini yaratdi. O'quvchilar darsda va darsdan tashqari vaqtda amaliy loyihalar tuzish bilan, jamoada real muammolarni hal qilish bilan shug'ullanadilar. Bunday yondashuv o'quvchilarni nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llab ishdagi yoki shaxsiy hayotidagi muammollarini o'rgangan ko'nikmalar orqali hal qila oladilar.

### 21-asr hayotiy ko'nikmalar

#### Savodxonlik

*Bilimlarni kundalik hayotda qo'llanilishi*

Imlo savodxonligi

Raqam savodxonligi

Ilmiy savodxonlik

Komputer savodxonligi

Moliyaviy savodxonlik

Madaniy va fuqarolik savodxonligi

#### Kompetensiyalar

*Murakkab muammolarga o'quvchilar yondashuvi*

Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish

Ijodkorlik

Samarali muloqot

Hamkorlik

#### Fazilatlar

*O'zgaruvchan muhitga o'quvchilar munosabati*

Qiziquvchanlik

Tashabbuskorlik

Qat'iylik/Chidamlilik

Moslashuvchanlik

Yetakchilik

Ijtimoiy ogohlik

Xitoyda azaldan maktabdan tashqari *buxiban* nomli qo'shimcha pullik o'quv markazlari juda keng rivojlangandir (Siyuan Feng, 2021).<sup>7</sup> Bu repetitorlik markazlari, ayniqsa, farzandlari uchun porloq kelajakni yaratib bermoqchi bo'lgan ota-onalar orasida juda mashhurdir. Kelajak ish o'rinlari raqobatdosh bo'lishini va bunday raqobatda faqatgina chuqur bilimga ega bo'lgan yoshlar yutib chiqishini anglagan holda hitoyliklar farzandlarini ilm olishiga asosiy e'tiborini qaratadilar va mazkur markazlardan keng foydalanadilar. Ushbu markazlar o'z navbatida o'quvchilarni ayrim o'quv fanlaridan imtihonlarga tayyorlaydi va mashqlar orqali hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor

<sup>7</sup> Feng, S., Xitoyda soyadagi ta'lim evolyutsiyasi: paydo bo'lishi va kapitallizatsiyallashuvi. Vengriya ta'lim tadqiqotlari jurnali, 11(2), 89–100 betlar, 2021.



qaratadi. Breyning (2012) takidlashicha *buxiban* repetitorlik markazlari, birinchi navbatda, oddiy maktablar tomonidan beriladigan o'quv programmani to'ldirishga xizmat qiladi. Ular talabalarga, xususan, matematika, tabiatshunoslik, ingliz va xitoy tili kabi fanlar bo'yicha yuqori akademik yutuqlarga erishish uchun qo'shimcha mahsus kurslar taklif qilishadi. Masalan, mavzuga oid matematika, ingliz yoki xitoy tili kabi muayyan fanlar yoki mavzularga qaratilgan intensiv kurslar; imtihonga tayyorgarlik kurslari, ya'ni, abiturientlarni *Gaokao* (Milliy kollejga kirish imtihoni), TOEFL, IELTS, SAT, GRE yoki GMAT kabi standartlashtirilgan testlarga tayyorlash kurslari kiradi (Wei Zhang, 2023).<sup>8</sup> 30-aprel 2021-yil Xitoy hukumati "Ta'lim to'g'risidagi qonun"ga bir qator o'zgartirishlar kiritdi va hayotiy ko'nikmalarni, jumladan, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, yetakchilik, vaqtni to'g'ri taqsimlash, va muloqot ko'nikmalarini maktab va maktabdan tashqari o'quv muassasalarining dasturiga majburiy kiritilishini ta'minladi.<sup>9</sup> Hozirda hitoyliklarning aksariyat sohalarda yutuqlarga erishishi ham ta'limga kiritilayotgan yangi islohatlar natijasidir.

Quyida Hitoyda hayotiy ko'nikmalar maktab va maktabdan tashqari muassasalarda qanday o'qitilishi haqida ma'lumot berilgan.

**Tanqidiy fikrlash va muammolarni to'g'ri hal qilish.** O'qituvchi ko'pincha qiyin kurs ishlarini va muammolarni hal qilishni o'quvchilarga taklif qiladi, ularni tanqidiy fikrlashga va muammolarni hal qilishning samarali strategiyalarini ishlab chiqishga undaydi.

**Vaqtni to'g'ri taqsimlash,** o'quvchilar maktab vazifalarini va qo'shimcha darslarni bajarish uchun vaqtlarini to'g'ri taqsimlashni bilishlari kerak, ya'ni belgilangan vaqtda barcha vazifalarni bajarib bo'lishlari lozim. Albatta, bu ko'nikma bolani akademik va professional muvaffaqiyatlarga erishish uchun poydevordir.

**O'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash.** *Buxiban* o'quvchilari maktabdagi tushunmagan mavzularga qo'shimcha yordam va ko'rsatmalar olishadi va shu orqali o'ziga bo'lgan ishonchi oshadi. Bu ishonch bolalarda o'zini o'zi qadrlashni va hayotning turli vaziyatlarida to'g'ri qaror qabul qilishni o'rgatadi.

**Muloqot ko'nikmalari,** repetitorlar va tengdoshlar bilan muloqot qilish orqali talabalar o'zlarining muloqot qobiliyatlarini yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilar bir birlariga savollar berishadi, munozaralarda qatnashishadi yoki muloqotni rivojlantiruvchi mashqlar bajarishadi. Bunday yondashuv o'quvchilarni yanada tajribaliroq va samarali muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishiga yordam beradi.

**Chidamlilik va qat'iyatlilik:** Repetitorlik markazlarining qattiqqo'l tabiati o'quvchilarga qiyinchiliklarga qarshi qat'iyatli va chidamli bo'lishni o'rgatadi. Qiyin muammolar va topshiriqlar bilan ishlashda, sabr-toqat va to'siqlarni yengib o'tishni o'rgatadi. Bunday qobiliyat kelajakda ishda va shahsiy hayotda chidamli va sabr-toqatli qilib tarbiyalaydi.

**Hamkorlik va jamoada ishlash.** Ba'zi *buxiban* markazlari o'quvchilar o'rtasida jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun guruhlariga bo'linib loyiha ishlab chiqish vazifasi beriladi. Boshqalar bilan samarali ishlash, guruh muvaffaqiyatiga hissa qo'shish, boshqalarni tinglay olish va to'g'ri hulosalar chiqarish kabi ko'nikmalarni ana shunday loyihaviy faoliyatlar o'rgatadi.

**Yetakchilik.** Xitoy ta'lim tizimi dasturiga yetakchilik qobiliyatlarini o'quvchilarda hosil qilishni asosiy omil qilib belgilab qo'ygan. Bu qobiliyatni rivojlantirishning ikki hil usul bilan, jumladan, rasmiy- maktab va universitetlarda; va norasmiy-maktab va universitetlardan tashqari hayotiy ko'nikmalarni o'rgatuvchi qo'shimcha mashg'ulotlar yoki klublar bor ana shu yerda amalga oshadi. Universitet yoki maktabda o'quvchilar turli xil yetakchilik uslublaridan; qaror qabul qilish, jamoa dinamikasi, muloqot strategiyalari va axloqiy mulohazalar haqida bilib oladilar. Norasmiy usulga talabalar uyushmasi, munozara klublari, notiqlik tanlovlari, ko'ngillilar tashkilotlari va yetakchilarni o'qitish bo'yicha seminarlar kiradi. Ushbu tadbirlarda ishtirok etish talabalarga o'zlarining yetakchilik qobiliyatlarini haqiqiy sharoitda mashq qilish va takomillashtirishga imkon beradi. Hayotiy ko'nikmalarni o'rgatuvchi qo'shimcha darslar talabalarga yetakchilik qobiliyatlarini amalda namoyon qilishlari mumkin, binobarin uning muammolari va imkoniyatlari haqidada ham tushunchalarga ega bo'ladilar. Xitoyda bu kabi qo'shinchilik mashg'ulotlar amaliy tadqiqotlar,

<sup>8</sup> Zhang, V., Soyadagi ta'limni qo'llab-quvvatlash: xususiy repetitorlik va uni tartibga solish chora tadbirlari. Taylor & Francis, 171 bet, 2023.

<sup>9</sup> Zaylobidinova M., O'zbekistonda soyali ta'lim: Farg'ona shahridagi umumta'lim maktabida xususiy repetitorlikka bo'lgan talabda ota-onalarning istiqbollari, 2019.

simulyatsiyalar va tajribalar orqali mutahassislar tomonidan olib boriladi. Amaliyotda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularni hal qilish mashqlari talabalarning tanqidiy fikrlash, to'g'ri qaror qabul qilish, nizolarni hal qilish strategiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xitoyning o'qitish metodining o'ziga hosligi haqida Z. Feng. va X. Jialar (2024) quyidagi fikrni bildirishgan:

“Xitoyda sifatli ta'limga e'tibor kuchayib bormoqda, siyosatchilar va o'qituvchilar sifatini ta'lim berishga e'tibor qaratdilar. O'qituvchilar malakasini oshirish, ta'lim resurslarini yangilash va o'qitishning innovatsion uslublarni joriy etish bo'yicha olib borilgan sa'y-harakatlar yanada dinamik va qiziqarli o'quv muhitini hosil qildi”.<sup>10</sup>

Zhang va Brey (2016) soyadagi ta'lim tadqiqodlarini olib borar ekan “Xitoydagi repetitorlik markazlari bolaning akademik rivojlanishida katta ro'l o'ynashini takidlaydi. *Biaxiban* o'quv markazlari xizmatidan qoniqish hosil qilgan ota-onalar esa farzandlarining o'quv faoliyati yaxshilangani, o'ziga bo'lgan ishonchni shakllangani va o'qishga bo'lgan motivatsiyasi ortganini aytib o'tdilar. Ota-onalarning ijobiy fikrlari Xitoyning repetitorlik markazlari mamlakat ta'lim maqsadlarini amalga oshiruvchi qo'shimcha kuch ekanligini tasdiqlaydi”.<sup>11</sup>

Xitoyning o'quv dasturi mukammal joriy etilgan va barcha o'quv muassasalari (maktab, universitet, o'quv markazlari)da qollaniladi, shuning uchun Xitoyning o'quvchilari xalqaro baholash tizimida (PIZA 2018, PIZA 2022) hozirga qadar birinchilar o'rnini egallab kelmoqdalar.

2017-yilda Gongkong (Xitoyning provinsiyasi) hukumati yumshoq ko'nikmalarni o'rgatishni maktab dasturiga kiritishni rejalashtirgan. “Charting for Brighter Tomorrow for Hong Kong-Gongkong uchun yorqinroq kelajak yaratish” hukumat veb-saitida 2024-2025-o'quv yili ohirida eng kam 75% gongkonglik o'quvchilar samarali muloqot, liderlik, muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi va ularni raqamli texnologiyalar kelajagiga tayorlash kerakligi elon qilindi. Gongkong xalqaro maktablari bu ko'nikmalarni kelajak hayotga tayorgarlik deb hisobladi, va o'rgatishni maktabning eng asosiy maqsadi qilib belgiladi. Boshqa maktablar yumshoq ko'nikmalarni drama to'garaklarida, darslarda esa o'yinlarga asoslanib o'rganishni yo'lga qo'ydilar. Bu usullar o'quvchilarni qiziqitirdi, ota-onalar tomonidan esa qo'llab quvvatlandi.

Gongkongda repetitorlik markazlari hayotiy ko'nikmalarni o'quv dasturiga integrasiya qilishni ancha oldin boshlaganlar va kelajakda kerakli mutahassislarni yetkazib berish kabi o'ly maqsadni oldiga qo'yib uddasidan chiqmoqdalar. Shengli Zan va boshqalar 2013-yilda repetitorlik markazlarining o'quvchilari orasida so'rovnoma o'tkazdilar. “O'quv markazda o'qish davomida o'zingda qayday ko'nikmalar shakllandi?” degan savolga “o'zimga bo'lgan ishonch ortdi”, “muloqot ko'nikmalarim rivojlandi”, “men o'zimni maktabdan ko'ra repetitorlik markazida erkinroq his qilaman” kabi jaboblar berishgan.<sup>12</sup> Bundan ko'rinib turibdiki, demak repetitorlar hayotiy ko'nikmalarni mashg'ulot jarayoniga integrasiya qilishgan, natijada o'quvchilarining o'zlariga bo'lgan ishonchni, muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga muvaffaq bo'lishgan. Repetitorlik o'quv markazlarining bunday strategiyasi o'zning nufuzini va mijozlarni yo'qotmaslik va hukumat uchun ayni ish o'rinlarga mos keluvchi kadrlarni tayorlab berishdir.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Zamonaviy dunyoda o'quvchilarning muloqot qilish, muammolarni hal qilish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim qismiga aylanib bormoqda. Xitoyning ilg'or ta'lim tizimi bu borada jahon miqyosida katta e'tirofqa ega bo'lib, u hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishda o'ziga xos uslub va yondashuvlarga asoslanadi.

Hayotiy ko'nikmalar deganda shaxsning kundalik hayotdagi vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal qilishiga yordam beradigan qobiliyatlar tushuniladi. Ular, jumladan, samarali muloqot qilish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, stressni boshqarish va qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Bu ko'nikmalar nafaqat insonning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi, balki ijtimoiy munosabatlarda ham muvaffaqiyat qozonishiga asos yaratadi. Shu sababli, ular ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanishi kerak.

<sup>10</sup> Feng, Z. va Jia, X., Xitoyda ta'lim: Xitoy ta'limi bilan tanishuv. Singapur: Springer Nature Singapur. 2 bet, 2024.

<sup>11</sup> Zhang, V. va Bray, M., Soyadagi ta'lim: Xususiy repetitorlikning rivojlanishi va uning oqibatlari. Xitoy misolida. 85-99 betlar, 2016.

<sup>12</sup> Zhan, S., Bray, M., Vang, D., Lykins, C., & Kwo, O., Xususiy repetitorlikning samaradorligi: Gongkongdagi umumiy ta'lim bilan solishtirganda talabalarning tasavvurlari. Osiyo Tinch okeani ta'lim sharhi. 14 bet, 2013.

Xitoyda ta'lim tizimi hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha yangicha yondashuvlarni joriy qilgan. Mamlakatda o'quv dasturlari faqatgina akademik yutuqlarga qaratilmay, balki yetakchilik, ijodkorlik, vaqtni boshqarish va tanqidiy fikrlash kabi hayotiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. O'quvchilar amaliy mashg'ulotlar va jamoaviy loyihalar orqali nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradilar.

Xitoyning ta'lim tizimi hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishda repetitorlik markazlari (buxiban) ham katta rol o'ynaydi. Bu markazlar o'quvchilarning akademik yutuqlarini oshirish bilan bir qatorda ularning o'ziga hos bo'lgan ishonchini, muloqot ko'nikmalarini va liderlik qobiliyatlarini shakllantiradi. Bu markazlar orqali o'quvchilar imtihonlarga tayyorlanish va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

### XULOSA

Xitoyning repetitorlik markazlari o'quvchilarga tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, vaqtni to'g'ri taqsimlash kabi qobiliyatlarni o'rgatadi. Bu qobiliyatlar Xitoyning global ta'lim maydonida erishayotgan muvaffaqiyatlarining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, Xitoyning ta'lim tizimi o'quvchilarni nafaqat akademik bilimlar bilan jihozlash, balki ayni globallashtirilgan zamonda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalar bilan boyitishga ham qaratilgan.

Mazkur tajribani O'zbekiston ta'lim tizimida tatbiq etish orqali hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish hamda ta'lim sifatini yanada oshirish mumkin. Bu, o'z navbatida, yoshlarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi degan umiddamiz.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Feng, S., The evolution of shadow education in China: From emergence to capitalization *Hungarian Educational Research Journal*. (Xitoyda soyadagi ta'lim evolyutsiyasi: paydo bo'lishi va kapitalizatsiyalashuvi, Vengriya ta'lim tadqiqotlari jurnali) 11(2), 89–100 betlar, 2021.
2. Feng, Z. va Jia, X., Education in China: An Introduction. In *Education in China and the World: Achievements and Contemporary Issues* (pp. 1-45). Singapore: Springer Nature Singapore. Xitoyda ta'lim: Xitoy ta'limi bilan tanishuv. Singapur: Springer Nature Singapur nashriyoti, 2 bet, 2024.
3. Munira, Z. The backwash of shadow education. (*Soyadagi ta'limning oqibatlari*). Conferencea, 110-111, 2022.
4. Munira, Z. Globalization education in Uzbekistan: Reforming the education system in Uzbekistan with the partnership of international organization. (*O'zbekistonda ta'limni globallashtirish: Xalqaro tashkilotlar hamkorligida O'zbekistondagi ta'limni isloh qilish*) *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 310-319 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentyabrdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ – 3276-sonli Qaror [7;]<sup>13</sup> qarori.
6. Sawhney, V., Actually, It's Okay to Disagree with People at Work, *Harvard Business Review*. (Odamlarning fikriga qo'shimaslik salbiy xulqning oqibati emas, *Garvard iqtisodiy rivojlanish sharhi jurnali*) 173 bet, 2020.
7. Tan, J., Don't Just Focus on Your Technical Skills, *Harvard Business Review*. (Odamlarning faqat texnik ko'nikmalariga emas hayotiy ko'nikmalariga ham e'tibor qarating. *Garvard iqtisodiy rivojlanish sharhi jurnali*) 45 bet, 2022.
8. Zhang, V., Taming the wild horse of shadow education: The global expansion of private tutoring and regulatory responses. (*Soyadagi ta'limni qo'llab-quvvatlash: xususiy repetitorlik va uni tartibga solish chora tadbirlari*), Taylor & Francis, 171 bet, 2023.
9. Zhang, V va Bray, M., Shadow education: The rise and implications of private supplementary tutoring. In *Spotlight on China* (pp. 85-99). (*Soyadagi ta'lim: Xususiy repetitorlikning rivojlanishi va uning oqibatlari. Xitoy misolida. 85-99 betlar*), 2016.
10. Zhan, S., Bray, M., Vang, D., Lykins, C., & Kwo, O., The effectiveness of private tutoring: Students' perceptions in comparison with mainstream schooling in Hong Kong. *Asia Pacific education review*, 14, 495-509. (*Xususiy repetitorlikning samaradorligi: Gonkongdagi umumiy ta'lim bilan solishtirganda talabalarning tasavvurlari. Osiyo Tinch okeani ta'lim sharhi*), 14 bet. 2013.
11. Zaylobidinova M.G. Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish, 2023.
12. Zaylobidinova, M. Shadow Education in Uzbekistan: Parents' perspectives in Demand for Private Tutoring in Secondary School in Ferghana (*O'zbekistonda soyali ta'lim: Farg'ona shahridagi umumta'lim maktabida xususiy repetitorlikka bo'lgan talabda ota-onalarning istiqbollari*), 2019.

<sup>13</sup> <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>